

ZAMONAVIY TARBIYACHI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O’RNI

**Oxunov Ilxomjon Abdunabiyevich
ADPI, Maktabgacha ta’lim nazariyasi
kafedrası v.b.dotsenti (PhD)
Tirkasheva Sarvinoz Odiljon qizi
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamon tarbiyachisi o’z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni hamda turli fan yo’nalishlari bo’yicha maxsus bilimlarga ega bo’lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarini egallashlari kerakligi haqidagi fikrlar yoritilgan. Shu bilan birga xalqimizning buyuk mutafakkirlarini tarbiyachi haqidagi fikrlarini yoritib bergan.

Kalit so’zlar: Tarbiyachi, ta’lim-tarbiya, jamiyat, milliy qadriyatlar, ta’lim nazariyasi.

Yurtboshimiz tomonidan qabul qilingan Farmon va Qarorlar uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo’g’ini sanalmish maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat hamda nodavlat tarmog’ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlashda dasturilamalga aylandi. Prezidentimiz SH.Mirziyoev tomonidan qabul qilingan Farmon va Qarorlar uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo’g’ini sifatida maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat hamda nodavlat tarmog’ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Demak, hozirgi zamon tarbiyachisi o’z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni hamda turli fan yo’nalishlari bo’yicha maxsus bilimlarga ega bo’lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarini egallagan, ta’lim muassasalarida faoliyat ko’rsatuvchi shaxsdir.

Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas’uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o’z mas’uliyatini anglashga, ta’lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o’z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o’rtoqlarini o’sishiga yordam beradi.

Zero, tarbiyachi avvalo, bilimli bo’lishi, o’zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo’lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, pedagogik tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtayi nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi. Mustaqillik munosabati bilan respublikamiz rahbariyati tarbiyachilarning faoliyatini yuqori baholamoqda.

O’zbekiston Respublikasida tarbiyachi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo’yilmoqda. Chunonchi, bu borada O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi – ustoz bo’lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o’stirish, mahrifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o’zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo’lishi kerak».

Xalqimizning buyuk mutafakkirlari bo’lmish Imom-al-Buxoriy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Baxouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Mirzo

Ulug‘bek, Mirzo Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Botu, Maxmudxo‘ja Bexbudiy va boshqa shu kabi ko‘plab buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviyat sarchashmalari o‘zining tarbiyaviy jaamiyatga, ma’rifatni targ‘ib etish xususiyatlariga va ibratlilik xususiyatlariga ega ekanligi tufayli hozirgi kunga qadar o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmay kelmoqda. Bular jumlasiga Navoiyning mashhur “Hamsa”sini, Bexbudiyning “Turkiy Guliston yoxud ahloq”, Imom-al Buxoriyning “As saxix” hadislar to‘plami kabi ko‘plab yuksak qadr-qimmatga ega asarlarni kiritishimiz mumkin. Xalqimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlar va urf-odatlar hamda xalq og‘zaki ijodi namunalari bevosita xalqimiz ruhiyati asosida shakllangan bo‘lib, ular ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashda eng muhim ahamiyatga egadir. Ushbu qadriyatlar o‘z navbatida yuqorida sanab o‘tilgan buyuk mutafakkirlarimizni ham tarbiyalab voyaga etkazgandir. Shunday ekan biz buyuk xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarimiz har qancha fahrlansak arziydi. Bizning burchimiz bunday qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni izchil ravishda takomillashtirib borishdir.

Forobiyning fikricha, insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l – ta’lim va tarbiya orqali hosil qilinadi: “Ta’lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta’lim so‘z va o‘rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, har ikkalasi birlashsa, etuklik namoyon bo‘ladi...”. Demak, Forobiy ta’lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergan bo‘lsa ham, har birining insonni kamolga yetkazishida o‘z o‘rni va xususiyati borligini alohida ta’kidlaydi.

Sharqning buyuk allomasi, qomusiy olim Forobiy tarbiyachining ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ibratli g‘oyalarni ilgari surgan. «Tarbiyachi – deydi Forobiy, - aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi va bolalarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur. Shu bilan birga o‘z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo‘lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi», - deb ta’kidlaydi.

Abu Ali Ibn Sino ning fikricha, «... tarbiyachi matonatli, sof vijdonli, rostgo‘y va bola tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo‘lmog‘i lozim. Tarbiyachi bolaning butun ichki va tashqi dunyosini o‘rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog‘i lozim».

Shunday ekan barcha kasblar orasida tarbiyachilik kasbi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, tarbiyachi yosh avlod qalbi kamolotining me’mori, yoshlarga ta’lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yosh avlodni g‘oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rgatadi, bolalarni bolalik chog‘idan mehnat faoliyatiga tayyorlab, uning sirlarini puxta egallashlarida ko‘maklashadi va jamiyat uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas’uliyat tarbiyachidan o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni, bolalarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste’dodi, e’tiqodi va amaliy ko‘nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo‘llarini izlab topadigan kasb egasi bo‘lishni talab etadi. Buning uchun doimo tarbiyachilar kasbiy mahoratini, ko‘nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g‘amho‘rlik qilish, zarur shart-sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy-metodik hamda texnik yordam ko‘rsatish, tarbiyachilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko‘maklashish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-sonli

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

“O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.

3. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni Bosh tahririyati, 1993.
4. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016.
5. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. – T.: O‘qituvchi, 1991. – 256 b.
6. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003. 7-b
7. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi.–T.: O‘qituvchi, 1993. – 264b
8. www.tdpu.uz, www.pedagog.uz, www.ziyonet.uz, www.i-gnom.ru.